O‘ZBEK TILI IQTISODIYOT TERMINLARINING BELGI O‘XSHASHLIGI ASOSIDA YUZAGA KELISHI

Ikromjon Toshpulat o‘g‘li Habibjonov
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Farg‘ona mintaqaviy filiali

Annotatsiya: Belgi o‘xshashligi asosida termin hosil bo‘lishida terminga asos bo‘lib xizmat qilgan ma’no bilan terminologik ma’no tarkibidagi belgi bildiruvchi tegishli semalar asosiy rol o‘ynaydi. Maqolada bu hodisaning iqtisodiyot terminlaridagi ayrim ahamiyati haqida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: termin, iqtisodiyot, belgi o‘xshashligi, metafora, til

THE FORMATION OF UZBEKISTAN ECONOMIC TERMS ON THE BASIS OF SIGNAL SIMILARITY

Ikromjon Toshpulat oglu Habibjonov
Fergana regional branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Abstract: In the formation of a term on the basis of sign similarity, the main role is played by the semantics of the term, which served as the basis for the term, and the corresponding semantics that denote the sign in the terminological meaning. The article discusses some of the significance of this phenomenon in economic terms.

Keywords: term, economy, sign similarity, metaphor, language

Belgi o‘xshashligi asosida iqtisodiyot terminlarining yuzaga kelishi o‘zbek tili uchun xarakterli hodisalardan biridir. Ikkilamchi nominatsiyaning bir ko‘rinishi deb izohlab kelinadigan mazkur yasalish jarayonlarini A.Madvaliyev semantik usul bilan termin yasalishi hisoblab, uning mazmun-mundarijasini umumlashtirib ta’riflaydi: “Ba’zan umumtilda avvaldan mavjud bo‘lgan, odatiy so‘zlar o‘zlarining tovush tarkibini va shaklini o‘zgartmagan holda kimyoviy termin sifatida qo‘llanishi mumkin. Oddiy so‘zning terminga aylanishi natijasida bu so‘z muayyan terminologik sistemada yangi mazmun kasb etadi”[1]. Hosil bo‘lgan yangi termin umumtildagi ma’no asosida rivojlangan bo‘lsa ham, undan ma’nosi va sohaviy xoslanishiga ko‘ra uzoqlashadi.

Belgi o‘xshashligi asosida termin hosil bo‘lishida terminga asos bo‘lib xizmat qilgan ma’no bilan terminologik ma’no tarkibidagi belgi bildiruvchi tegishli semalar asosiy rol o‘ynaydi. So‘zlarning har xil belgilari yangi terminni hosil qilishda

[1] Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси муаммолари. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2017. – Б. 117.

(cc) BY

qatnashishi mumkin. jumladan, iqtisodiyot terminologiyasida *sof foyda* termini ko‘p qo‘llanadi. Sohaviy terminologiyada “korxona moliyaviy faoliyati natijasida ko‘rilgan daromaddan mahsulot tannarxi va soliqlar hisoblanganidan so‘ng korxona ixtiyorida qolgan mablag‘” ma’nosini ifodalaydigan *sof foyda* termini belgi o‘xshashligi asosida hosil bo‘lgan. Metafora *sof* so‘zida kuzatiladi. Buni aniqlash uchun so‘zning barcha ma’nolarini keltirish lozim:

1. Beg‘ubor, toza, musaffo. *Sof havo.*

2. Boshqa narsa aralashmagan; asil, toza. *Sof oltin*.

3. O‘zga unsurlardan xoli; toza. *Sof o‘zbek tilida gapiradi*.

4. Dog‘ tushmagan, har qanday ayb, gunoh, nuqsondan xoli; toza, pokiza, halol. *Sof vijdon*. (O‘TIL, IV, 694-695).

Ushbu so‘zning “boshqa narsa aralashmagan; asil, toza” ma’nosini rivojlantirish yo‘li bilan *sof foyda* terminidagi *sof* so‘ziga “sarf-xarajatlar chiqarib tashlangandan keyingi, sarf-xarajat qo‘shilmagan” ma’nosi biriktirilgan. “Boshqa narsa aralashmagan; asil, toza” va “sarf-xarajatlar chiqarib tashlangandan keyingi, sarf-xarajat qo‘shilmagan” qismlarini ulardagi belgi o‘xshashligi umumlashtirib turadi.

Iqtisodiyot sohasida *sof* so‘zini metaforik qayta anglash orqali yasalgan boshqa terminlar ham mavjud. Xususan, “yalpi milliy mahsulotdan amortizatsiya ajratmalari summasini chegirib tashlangandan qolgan qiymat summasi”[2] ma’nosini anglatadigan *sof milliy mahsulot* terminini ko‘rsatsa bo‘ladi. Mazkur termin iqtisodiyot terminologiyasidagi *milliy mahsulot* terminining tarkibini *sof* so‘zini qo‘shib kengaytirish bilan hosil qilingan. Buning uchun yuqorida qayd qilinganidek, sof so‘zi ma’nosi belgi o‘xshashligi asosida rivojlantirilgan, terminologik ma’no *sof* so‘zining umumtildagi “boshqa narsa aralashmagan” semasidan o‘sib chiqqan.

O‘zbek tili iqtisodiyot terminologiyasida ma’lum bir so‘zning ma’nosini metaforik qayta anglash, belgi o‘xshashligi asosida termin yasash tizimli xususiyat kasb etgan. Masalan, *sof* so‘zining “boshqa narsa aralashmagan” semasi bilan o‘nlab iqtisodiyot tushunchalarida belgi o‘xshashligi topilgan, “boshqa narsa aralashmagan” semasini metaforik rivojlantirish yo‘li bilan o‘nlan terminlar yuzaga kelgan:

sof qiymat - jismoniy shaxs yoki muassasaga tegishli moliyaviy va nomoliyaviy aktivlarning to‘lanmagan majburiyatlari qiymatidan chegirib tashlangan keyingi qismi[3];

sof import - mamlakat importining umumiy hajmi va mamlakatga import qilinayotgan tovar turlari eksportining hajmi o‘rtasidagi farq (IAIL, 311);

[2] Зойиров З. Иқтисодиётга оид атамалар ва тушунчалар изоҳли луғати. – Тошкент: “Фан” нашриёти, 2004. – Б. 38.

[3] https://uz.wikipedia.org/wiki/Sof_qiymat

(cc) BY

sof monopoliya - tarmoqdagi yagona ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashda hamda foyda olishdagi yakkahukmronlik holati (IAIL, 311);

sof narx - sotuv, xarid bilan bog‘liq barcha xarajatlarning chiqarib tashlanishi yoki muvofiq tarzda qo‘shilishidan keyingi sotuvdan tushum yoki xarid uchun to‘langan umumiy to‘lov (IAIL, 311);

sof eksport - tovar va xizmatlarning eksporti va ularning importi o`rtasidagi ayirma: eksport-import=sof eksport[4];

sof investitsion daromad - bir mamlakat fuqarolari boshqa mamlakat fuqarolaridan oladigan, mazkur mamlakat fuqarolari boshqa mamlakat fuqarolariga to‘laydigan foiz va dividendlar chiqarib hisoblangan foizlar va dividendlar ko‘rinishidagi foyda (IAIL, 311);

sof iqtisodiy foyda - buxgalterlik hisob-kitobi foydasi va hisoblanadigan umumiy daromad va chiqimlar o‘rtasidagi farq.*sof ichki xususiy investitsiya* - amortizatsiya ajratmalari chiqarib tashlangan xususiy ichki investitsiyalarning yalpi hajmi (IAIL, 311);

sof kapital qo‘yilma - mablag‘ sarflash natijasida ishga tushirilgan obyekt yoki asosiy kapitalning qiymati.*sof xarid qobiliyati* - noqulay yo‘nalishdagi narxlar harakatida yo‘qotish ehtimolini chiqarib tashlagandagi erkin mablag‘ qoldig‘i (IAIL, 311);

sof kreditor - aktivlari majburiyatlaridan ko’proq bo’lgan iqtisodiy subyekt[5];

sof qarzdor - majburiyatlari aktivlaridan ko’proq bo’lgan iqtisodiy subyekt[6];

sof ichki mahsulot - makroiqtisodiy ko`rsatkich bo`lib, YIM (YMD)dan amortizatsiya ajratmalari miqdorini ayirib tashlash yo`li bilan topiladi[7];

sof pul oqimi - umumiy pul chiqimidan umumiy pul kirimini ayirib tashlangan keyin qolgan qismi.

Ma’lumki, o‘zbek tilida sifat, ravish turkumidagi so‘zlar narsa-hodisalar va harakatlarning biror belgisini ifodalab keladi. Sifat va ravish so‘zlar ushbu xususiyatlarini terminologik tizimda, yanada aniqrog‘i, termin yasashda ham saqlab qoladi. Ma’lum bir sohaviy tushunchani aniqlashtirish, tilda mavjud birikma terminni kengaytirish vazifasini bajarib keladi. Belgi bildiruvchi so‘zlar mazkur vazifalardan birini bajarib kelganda metaforik xususiyatga ega bo‘lishi ham tez-tez kuzatiladi. Iqtisodiyot terminologiyasi tarkibida ma’lum bir sohaviy tushunchani aniqlashtirish yoki tilda mavjud birikma terminni kengaytirish vazifasini bajarib, metaforik qo‘llangan terminlarning alohida qatlami mavjud. Bunday lisoniy mexanizm orqali belgi o‘xshashligi asosida birikma shaklidagi iqtisodiyot terminlarining birinchi

[4] https://dictionary.tsue.uz/soz/SOF-EKSPORT
[5] https://finlit.uz/uz/training/glossary/
[6] https://finlit.uz/uz/training/glossary/
[7] https://dictionary.tsue.uz/soz/SOF-ICHKI-MAHSULOT

(cc) BY

qismida metaforizatsiya yuz beradi. Hozirgi o‘zbek iqtisodiyot terminologiyasidagi *yashil energetika, yashil iqtisodiyot, yashil moliya, yashil investitsiya, yashil obligatsiya, yashil sanoat, yashil o‘sish* kabi terminlarda shunday metaforizatsiya kuzatiladi.

Yashil komponentli terminlarning barchasida “tabiatga juda kam zarar yetkazadigan” tushunchasi rivojlantirilgan, mazkur terminlarning barchasining semantikasida “tabiatga zarar keltirmaydigan (yoki juda kam zarar keltiradigan)”, “salbiy ekologik oqibati bo‘lmagan (yoki salbiy oqibati juda kam bo‘lgan)” degan belgi mavjud. Bunda termin yasovchi mutaxassis tomonidan *yashil* komponentli terminlarga xos bo‘lgan ushbu xususiyatlarning *yashil* so‘zi ifodalaydigan belgiga o‘xshashligi to‘g‘ri topilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining hozirgi iqtisodiy siyosatidagi o‘zak tushunchalardan birini ifodalaydigan termini *yashil energetika* bo‘lib, lug‘atlar va iqtisodiyot bo‘yicha adabiyotlarda “tabiatga juda kam zarar yetkazadigan energetika” (IAIL,) deb ta’riflanadi. Yoki xuddi shunday O‘zbekiston iqtisodiyotining turli sohalarida faol qo‘llanayotgan yana bir termin *yashil iqtisodiyot* bo‘lib, lug‘atlat va sohaviy adabiyotlarda “inson hayoti va sog‘lig‘i uchun zarur bo‘lgan resurslarni, atrof-muhit va ekologiyani bir butun holda saqlab qolib ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishni rivojlantirishga asoslangan iqtisodiy faoliyat” deb izohlanadi. Yuqoridagi ikkala terminning semantikasida “ekologiya kam zarar yetkazadigan” belgisi asosiy hisoblanadi. soha mutaxassislari mana shu belgi bilan yashil so‘zi tarkibidagi belgining o‘rtasidagi o‘xshashlikni to‘g‘ri topa olishgan.

Xuddi shunday belgi o‘xshashligi asosida yana bir necha o‘nlab iqtisodiyot terminlari hosil qilingan bo‘lib, ularning ham yasalish mexanizmida metaforizatsiya muhim rol o‘ynagan. Bunday terminlarga “Iqtisodiyot atamalarining izohli lug‘ati”dan olingan quyidagi misollarni ularning ma’nolari bilan birga keltiramiz:

1) *yashil energetika* - an’anaviy energetikaga nisbatan tabiatga juda kam zarar yetkazadigan energetika (IAIL, 401);

2) *yashil investitsiya* - tabiat va ekologiyani buzmaydigan ishlab chiqarish texnologiyalarini kengaytirish, shunday iqtisodiy tarmoqlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan kapital (IAIL, 400);

3) *yashil iqtisodiyot* - odamlar va tabiat o‘rtasidagi bog‘liqlikni va ikkalasining ehtiyojlarini bir vaqtning o‘zida qondirishga urinishlarni qo‘llab-quvvatlaydigan iqtisodiyot metodologiyasi. Inson hayoti va sog‘lig‘i uchun zarur bo‘lgan resurslarni, atrof-muhit va ekologiyani bir butun holda saqlab qolib ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalari bilan bog‘liq iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni amalga oshirish-ga asoslangan iqtisodiy faoliyatning yangi yo‘nalishi tushuniladi (IAIL, 400);

(cc) BY

4) *yashil moliya* - ekologik toza, energiya samaradorligi yuqori va past uglerodli loyihalarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar (IAIL, 400);

5) *yashil moliyalashtirish* - atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatuvchi barcha omillarni hisobga oluvchi va ekologik barqarorlikni ta’minlashni nazarda tutuvchi investitsiyalash va kreditlashning shakllari (IAIL, 400);

6) *yashil obligatsiya* - ekologik toza transport yoki issiqxona gazlari emissiyasini qisqartirish bilan bog‘liq loyihalarga sarflanadigan muqobil mablag‘lar (IAIL, 400);

7) *yashil sanoat* - qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash, energiya samaradorligini oshirish, past uglerodli ishlab chiqarish (IAIL, 401);

8) *yashil transport* - ekologik toza transport tarmog‘idan foydalanish va yo‘nalishlarni optimallashtirish-ga qaratilgan faoliyat (IAIL, 401);

9) *yashil urbanizatsiya* - shaharlarni ekologik talablar asosida rivojlantirish, shahar ekotizimini saqlash, “yashil” zonalarni kengaytirish va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan shaharlashuv jarayoni (IAIL, 401);

10) *yashil o‘sish* - atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hisobiga vujudga keltiriladigan iqtisodiy rivojlanish (IAIL, 401).

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tili iqtisodiyot terminologiyasining rivojlanib, boyib borishida metaforizatsiya muhim ahamiyatga ega. Ammo bu jarayon oddiy, mexanik jarayon emas, aqliy va lisoniy jarayon hisoblanadi. Avval umumxalq tilidagi belgi bildiradigan so‘zning u yoki bu ma’nosi bilan nomlanishi - termin yasalishi kerak bo‘lgan tushuncha o‘rtasida o‘xshashlik bor-yo‘qligi aniqlanadi. O‘xshashlik topilgandan keyin umumxalq tilidagi so‘zning ma’nosi butunligicha emas, ma’noning bir komponenti - semasini rivojlantirish orqali terminologik tushunchaga umumxalq tilidagi nom biriktiriladi. Boshqa tilga oid termindan ko‘ra o‘z tildagi so‘zdan hosil qilingan terminning nima ma’no anglatishi insonlarga yaxshiroq tushuniladi. Birikma terminning boshqa qismi xorijiy so‘z hisoblansa ham, uning ma’nosi insonlarga notanish bo‘lsa ham, birikma terminning boshqa qismi o‘z so‘zdan tashkil topganligi sababli yasalayotgan terminni xal tilidan begonalashtirib qo‘ymaydi, yangi terminning umumxalq tiliga tezda o‘rnashib ketishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, o‘z so‘zning terminologik ma’noga ham ega bo‘lishi o‘sha so‘zning semantik strukturasini kengaytiradi, tilni semantik jihatdan boyitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси муаммолари. - Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2017. - Б. 117.

(cc) BY

2. Зойиров З. Иқтисодиётга оид атамалар ва тушунчалар изоҳли луғати. - Тошкент: “Фан” нашриёти, 2004. - Б. 38.

3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Sof_qiymat

4. https://dictionary.tsue.uz/soz/SOF-EKSPORT

5. https://finlit.uz/uz/training/glossary/

6. https://dictionary.tsue.uz/soz/SOF-ICHKI-MAHSULOT

(cc) BY